

**OCH TUSLI BO'Z TUPROQLAR SHAROITIDA MOSHNING SIFAT
KO'RSATKICHIGA OZIQLANTIRISH USULLARI VA
ME'YORLARINING TA'SIRI**

Tayanch doktorant Abdisolomova Iroda Nurmurod qizi

Q/x.f.f.d., k.i.x. Shoymuradov Abror

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

***Annatatsiya.** Mosh o'simligining fiziologik va biokimyoviy jarayonlariga bargdan oziqlantirishning ta'sirini o'rganish maqsadida Qashi tumanidagi Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti dala tajriba maydonida o'tkazildi. Bargdan oziqlantirish va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llash orqali yuqori oqsil miqdori olinganligi qayd qilindi. Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida moshning "Durdona" va "Barqaror" navlarini yetishtirishda mineral o'g'it $N_{20}P_{45}K_{30}$ me'yorda qo'llash hamda gumigel biostimulyatorini 1-1,5 l/ga qo'llash mosh donining oqsil miqdorini yaxshilashi ta'kidlangan.*

***Kalit so'zlar.** mosh, nav, Durdona, Barqaror, mineral o'g'it, biostimulyator, gumigel, don, oqsil.*

***Аннотация.** Для изучения влияния листовой подкормки на физиологические и биохимические процессы растения Маши в полевом экспериментальном районе был проведен Южный институт исследований натурального хозяйства в Карши. Отмечено, что высокое содержание белка получено за счет листовой подкормки и совместного внесения минеральных удобрений. Отмечено, что нормальное применение минерального удобрения $N_{20}P_{45}K_{30}$ и применение биостимулятора гумигеля в дозе 1-1,5 л/час улучшает количество зерна мош при выращивании сортов «Дурдона» и «Баркарор» на голодной почве провинции Кашгар.*

***Ключевые слова:** маш, сорт, Дурдона, Баркарор, минеральное удобрение, биостимулятор, Гумигель, зерно, белок.*

Abstract. A field experiment was conducted during of 2023 at Regional Southern Agricultural Research institute, in distrit Karshi, with an aim to find out effect of foliar nutrition on physiological and biochemical parameters of mung bean. Among foliar nutrients the biostimulator humigel recorded higher protein quantity and proved superior over other foliar sprays. Kashkadarya region, it was noted that the moderate use of mineral fertilizer $N_{20}P_{45}K_{30}$ and the use of the biostimulator humigel at a dose of 1-1.5 l/ha when cultivating moss varieties provide an improvement in content protein of the crop.

Key words. mung bean, variety, Durdona, Barkarar, mineral fertilizer, biostimulant, Gumigel, grain, protein.

Bugungi kunda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dunyo mamlakatlari uchun eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Hatto rivojlangan davlatlarda ham bunday ne'matlarning narxi yiliga 2-3 barobar oshishi kuzatilmoqda. Aholi sonining o'sib borishi, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer va suv resurslarining cheklanganligi, ayniqsa, tez-tez sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Shuning uchun yurtimizda mavjud imkoniyatlarni to'g'ri ishga solib, kuzgi boshqoli don ekinlari yig'ishtirib olinganidan so'ng takroriy ekin parvarishlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.(1)

Sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti cheklangan sharoitlarida ham moshni kuzgi bug'doy ang'izida yetishtirib, yuqori sifatli oqsil va boshqa qimmatli oziqaga boy bo'lgan mosh doni yetishtirish mumkin. Ayni vaqtda suv tanqis bo'lgan hududlarda mosh yuqori harorat va qurg'oqchilikka bardoshliligi sababli ko'proq kuzgi boshqoli don ekinlari ang'izida takroriy ekin sifatida yetishtirilmoqda.

Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan dukkakli-don ekinlari orasida mosh doni oziqalik qiymati, oqsil va vitaminlarga boy bo'lishi, kaloriyasining ko'pligi bilan ajralib turadi. Mosh oziqalik qiymati bilan bug'doy, loviya, no'xat, ko'k no'xat va javdar donlaridan 1,5-2 baravar, to'yimlilik bo'yicha esa 1,5 baravar ustun turadi. Mosh tarkibidagi oqsilning hazmlanishi 86% ga yetadi. Mosh tarkibida oqsil 24-28%, lizin 8%, arginin 7% bo'ladi, V va PP vitaminlar ko'p bo'ladi.(2)

Mosh ekini O'rta Osiyo, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy, Yaponiya, Kavkaz orti davlatlarida ekiladi. Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladilar. Moshning urug'lari turli parhyez oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashda ishlatiladi. Moshning urug'larida 26–30 % tez pishadigan va inson organizmi tomonidan yengil hazmlanadigan oqsil saqlanadi. Moshdan oziq-ovqat moshkichiri, moshova, moshli palov, turli xildagi salatlar, konditer mahsulotlari, pishmagan dukkagi va donidan konservalar tayyorlanadi. Moshdan tayyorlangan unini makaronga qo'shib, uning to'yimliliigi oshiriladi. Moshning ko'k massasi va qurigan poyalari ham chorva mollari uchun oqsilga boy to'yimli ozuqa hisoblanadi. Shuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o'zlashtirib, tuproq unumdorligini oshiradi.(2)

Tajribamiz sug'oriladigan yerlardan oqilona foydalanib takroriy ekilgan mosh navlaridan yuqori hosil yetishtirishni ta'minlaydigan o'g'it me'yorini, bargdan oziqlantirishga bag'ishlangan. Ushbu ilmiy ishning maqsadi moshning sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida don hosilini va sifatini oshiradigan maqbul o'g'it va bargdan oziqlantirish me'yorlarini aniqlash, takroriy ekishda mosh navlarini yetishtirish texnologiyalarini tadqiqot qilish va takomillashtirishga qaratilgan.


Har qanday qishloq xo'jaligi ekinining qimmatini faqat ulardan olinadigan hosilning miqdori bilangina emas, balki mahsulot sifati bilan ham aniqlanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari donining sifati hamma vaqt laboratoriya sharoitida tahlil o'tkazish yo'li bilan baholanadi. Tajribamizda mosh bargidan oziqlantirishning qo'llash muddat va me'yorlarining o'simlikning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Paykalchalar hosili yig'ishtirib olinib donning namligi, oqsil miqdori, 1000 dona don vazni ko'rsatkichlari laboratoriya sharoitida o'rganildi.

Dukkakli don ekinlari orasida mosh doni oziqaviylik qiymati jihatdan boshqa ekinlardan ajralib turadi. Chunki mosh tarkibidagi oqsilning hazmlanish darajasi o'rta hisobda 86% ni tashlik etadi. Mosh tarkibidagi oqsil miqdori o'simlik naviga, o'sish joyi, ob-havo sharoiti, qo'llaniladigan o'g'itlar va

agrotexnologik tadbirlarga mos holda o'zgaradi. Ayniqsa mosh ang'izda takroriy ekin sifatida ekilsa, dondagi oqsil miqdori yanada yuqori bo'ladi.(3)

M.I.Ikonnikova, V.G.Klimenkolarning ta'kidlashicha, bir yillik dukkakli don ekinlari xashagi tarkibidagi moddalar protein muammosini hal etadi hamda donidagi oqsil go'sht o'rnini qisman bosadi.(4,5)

Havo haroratining yuqori bo'lishi mosh donidagi oqsil miqdorining ma'lum darajada yuqori bo'lishiga ta'sir etishi mumkin. Moshni o'g'itlash va biostimulyatorlarning ham mosh doni tarkibidagi oqsil miqdoriga ta'siri borligi tadqiqotlarda aniqlangan.



1-rasm.

Tajribalarimizda moshning Durdona navida oqsil miqdori nazorotga nisbatan gumigel biostimulyator 1,5 l/ga qo'llanilgan variantda 2,2%ga, N20P45K30 qo'llanilgan variantda nazoratga nisbatan gumigel biostimulyator 2,8%ga, N40P90K60 qo'llanilgan variantda nazoratga nisbatan gumigel biostimulyator 2,1%ga ortganligi kuzatilgan bo'lsa, Barqaror navida esa nazorotga nisbatan gumigel biostimulyator 1,5 l/ga qo'llanilgan variantda 1,6%ga, N20P45K30 qo'llanilgan variantda nazoratga nisbatan gumigel biostimulyator 2,5%ga, N40P90K60 qo'llanilgan variantda nazoratga nisbatan gumigel biostimulyator 1,8%ga ortganligi aniqlandi.

Laboratoriya tahlillaridan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, azotli o'g'it me'yorining N20P45K30 va biostimulyator 1,5l/ga qo'llanilgan variantda oqsilning yuqori ko'rsatkichlariga erishiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, azotli o'g'itlar mosh donida oqsil miqdorining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatib, mosh o'simligi ekilgan maydon birligidan olinadigan nisbiy oqsil miqdorining ortishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida oqsili yuqori oziqaviy qiymatga ega bo'lgan don hosili olish demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabayeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug'oriladigan maydonlarda mosh y yetishtirishning intensiv texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019 yil.
2. Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B O'simlikshunoslik.T "Fan va texnologiya". 2018 yil
3. Pilov A.P. Loviya va mosh. Toshkent. O'zbekiston 1978 y.
4. Ikonnikova M.I. Bioximicheskoe izechenie zernovix bobovix kultur b sevyazi s problemoy rastitelnogo belka. Avtoref dis.dok-ra bionauk. Moskva 1965 g.47s.
5. Klimenko V.G. Priroda I pitatel'naya stennost belkov semyan bobovix kultur Promlemi belka b selskom xozyaystve M.Kolos 1975 g 510-519 s.